

2. [2]G.T. Gafurova. Sukuk v sisteme islamskogo finansirovaniya // Vestnik AGTU. Ekonomika. 2011. №2 90-94s.

3. [3]Hoepner AG, Rammal HG, Rezec M. Islamic mutual funds' financial performance and international investment style: Evidence from 20 countries. The European Journal of Finance. 2011;17(9-10):828-850.

YEVROOBLIGATSIYALARNI MUOMALAGA CHIQARISH, O'ZBEKISTONDA YEVROOBLIGATSIYA EMISSIYA AMALIYOTI

Avezov Ibrohim Ilxomovich

*TDIU Korporativ moliya va
qimmatli qog'ozlar
kafedrası asistenti*

Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni har doim ham ichki resurslar bilan qoplab bo'lmaydi, shuning uchun ham davlatlar xorijiy moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Ya'ni o'z ehtiyojlari uchun xorijiy mamlakatlardan resurs jalb qiladi, bu investitsiya, qarz yoki boshqa shaklda bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda xalqaro bozordan resurs jalb qilishning eng keng tarqalgan usullaridan bir bu yevroobligatsiyalar chiqarib, xalqaro fond bozoriga joylashtirishdir. Bu bozor yillar o'tgani sayn kengayib bormoqda va mamlakatlar, korporatsiyalar, yirik tijorat banklari bu bozorda o'zlarining qimmatli qog'ozlarini joylashtirmoqdalar.

Yevroobligatsiya – bu qarz majburiyatini o'zida ifoda etib, emissiya qiluvchi davlatning valyutasidan boshqa valyutada chiqariladi va xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorida joylashtiriladi. Bu ularga moliyaviy resurs jalb qilish uchun xalqaro bozorga chiqish imkonini yaratadi va 1960-yillarda chiqarila boshlangan yevroobligatsiyalar bugungi kunda anchagina ommalashgan qarz jalb qilish vositasidir.

Yevroobligatsiyalar muddatiga ko'ra 3 turga:

- Qisqa (1 yilgacha)
- O'rta (1-5 yilgacha)
- Uzoq (30 yilgacha)

turlarga bo'linadi va ular odatda uzoq muddatli qarz majburiyatini jalb qilish vositasi hisoblanadi.

Davlatlar, kompaniyalar, yirik tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalarni sotilishi, ularning investitsiya imkoniyatini oshishiga, xalqaro kapital bozorida samarali faoliyat yuritishiga, xalqaro qarz bozorida sezilarli darajada ishonchli o'ringa erishishga yordam beradi. Investorlar uchun esa aniq belgilangan miqdordagi daromadlilikni olish yoki qimmatli qog'oz bahosining oshishi natijasida daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Bu yevroobligatsiya emissiya qiluvchi uchun ham, yevroobligatsiyaga investitsiya kirituvchi uchun ham samarali daromad ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash, ba'zi sohalarda infratuzilmani rivojlantirish maqsadida, 2019-yil O'zbekiston tarixida birinchi marta umumiy qiymati 1 miliar dollarga teng yevroobligatsiyalarni London fond birjasiga joylashtirdi.

2019-yilda O'zsanoatqurilishbank tomonidan O'zbekiston tarixida ilk bor London fond birjasiga 5 yil muddatli 300 ming AQSh dollar qiymatdagi korporativ yevroobligatsiyalarni joylashtirdi.

Shuningdek, 2021-yilda Moliya vazirligi ko'magi bilan O'zbekneftgaz AJ 700 million AQSh dollari qiymatdagi yevroobligatsiyalarni 7 yillik muddat bilan London fond birjasiga joylashtirdi. Shu bilan birga, yana bir muvaffaqiyatli joylashtirish milliy valyutada Ipoteka-bank tomonidan amalga oshirilgan, ya'ni 2021 yil aprel oyida Ipoteka bank 785 mlrd. so'mlik yevroobligatsiyalarni London fond birjasiga joylashtirdi.

Bunday amaliyotlar keyinchalik ham davom etib kelmoqda, masalan, 2024-yil aprelda Ipoteka-bank tomonidan xalqaro Vena fond birjasida 1.4 trillion so'mlik 20.5 foiz yillik stavka bilan muvoffaqatiyatli joylashtirildi. Bunda bitim tashkilotchisi JP Morgan bank hisoblanib, Ipoteka-bankning Vengriya banki OTP bank tomonidan sotib olinishi ijobiy baholandi.

2024-yil iyul oyida O'zsanoatqurilishbank London fond birjasiga o'zining navbatdagi yevroobligatsiyalarini joylashtirdi, bunda Morgan Stanley, Fidelity, Goldman Sachs Asset Management, LGIM kabi bir qator nufuzli investorlar bilan muzokaralar olib borilgan.

Yevroobligatsiyalar joylashtirish jarayonida 900 mln dollardan ortiq takliflar kelib tushgan, shundan 400 mln dollar va 2.25 trillion so'm miqdorida mablag'lar jalb qilingan.

Ko'rinib turibdiki yevroobligatsiyalar emissiyasi mamlakatimizda kengayib bormoqda, bu davlat, aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa emissiya qiluvchi subyektlar uchun xorijiy resurslardan mablab jalb qilish uchun jozibador instrument. Shuningdek yevroobligatsiya emissiya amaliyoti resurs jalb qilish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini, ya'ni bitta resurs jalb qilish manbaiga bog'lanib qolishning oldini oladi.

Xulosa o'nida aytishimiz mumkinki yevroobligatsiya emissiya qilish bir qancha imkoniyatlarni taqdim etadi:

- katta hajmda mablag' jalb qila olish;
- xorijiy bozorda o'z o'rnini mustahkamlash;
- nisbatan arzon resurs jalb qila olish;

kabi bir qancha imkoniyatlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prof. S.E.Elmirzayev, M.N.Raxmedova, H.Xoliqov "Suveren yevroobligatsiyalardan tushgan mablag'larning qayta taqsimlanishi va ularning samaradorligi", "Xalqaro moliya va hisob" imiy electron jurnali. 3, iyun, 2020-yil

2. N.N.Hasanov "Theoretical and methodological approaches to attracting financial resources from the capital market to the corporate sector". "International

Journal of Innovation and Economic Development". Pages 30-35, February 2020.

3. Anders Lindgren -Yevroobligatsiyalarning nazariy asoslari., 2011.

3. Бобров Д. Еврооблигации - как это сделано на РТС // Рынок ценных бумаг. - 2002. - №16. - С. 44 – 46

4. <https://www.world-exchanges.org/>

5. www.uzse.uz

ISLOM MOLİYASI VOSITALARI ORQALI INKLYUZIV MOLİYALASHTIRISHNING O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Nurullayeva Lobar Nurbek qizi

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Iqtisodiyot" mutaxassisligi magistranti*

Sodiqov Zokir

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islom iqtisodiyoti va moliyasi,
ziyorat turizm" kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi O'zbekistonda inklyuzivlikni ta'minlashda Islom moliyasi vositalarining o'рни va istiqbollari tahlil qilindi. Islom moliyasining ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga asoslanganligi, moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan qatlamlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etish imkoniyatini yaratadi. Xususan, O'zbekistonda moliyalashtirish jarayonida Islom moliyasi instrumentlari orqali kambag'allikni kamaytirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish mexanizmlari ko'rib chiqildi. O'zbekistonda Islom moliyasi vositalarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xususan zakot, vaqf va qarzi-xasan kabi mexanizmlarni qo'llash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: inklyuzivlikni ta'minlash, Islom moliyasi, zakot, vaqf, qarzi-xasan, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik.

Global miqyosda moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 1,4 milliard kishi hali ham rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalana olmaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu holat dolzarb hisoblanadi. Islom moliyasi esa aynan mana shunday muammolarni bartaraf etishda samarali mexanizmlarni taklif etadi. Islom moliyasining asosiy tamoyillari bo'lgan foizsiz iqtisodiyot, xatarlarni adolatli taqsimlash va real aktivlarga asoslangan operatsiyalar moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan qatlamlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etish uchun keng imkoniyat yaratadi. Mazkur tamoyillar kambag'allikni kamaytirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishga qaratilgani bilan ajralib turadi. O'zbekistonda Islom moliyasi hali to'liq joriy etilmagan bo'lsa-da, mamlakatimizda inklyuziv moliyalashtirish tizimini